

ONA TILI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING

5-SINFI UCHUN DARSLIK

To‘la yangilangan 5-nashr

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan
tavsiya etilgan*

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
TOSHKENT – 2020

UO'K 811.512.133(075.3)

KBK 81.2 O'zb – 922

O–58

**N. MAHMUDOV, A. SOBIROV, SH. SATTOROV,
SH. TOSHIMIRZAYEVA, D. MANNOPOVA**

Mas'ul muharrir:

Z. Xolmanova – filologiya fanlari doktori.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori

Taqrizchilar:

G. Xolmuratova – Respublika ta'lim markazi ona tili metodisti;

N. Ergasheva – Quva tumani 62-IDUMI oliv toifali o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lchisi;

G. Mirzayeva – Marhamat tumani 47-IDUM oliv toifali o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lchisi.

Aziz o'quvchilar!

Siz 1–4-sinflarda ona tili fanining dastlabki tushunchalari haqida ma'lumotlar oldingiz.

Yetuk matematik, biolog, shifokor, muhandis, diplomat yoki boshqa kasb egalari bo'lish uchun, birinchi galda, ona tili va adabiyotni mukammal biliish darkor.

Sizlar 5-sinfda so'zlarning tovush qurilishi, to'g'ri yozilishi (imlo qoidalari), leksikologiya (so'z ilmi), lug'atshunoslik bo'limlari, tinish belgilaringning ishlatalish o'rinnari haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz, ba'zi ish qog'ozlari bilan tanishasiz.

Bundan tashqari, matn bilan tanishasiz. Matnlarni tahlil qilish jarayonida lug'at bilan ishlaysiz va so'zlarning ma'nosiga, qo'llanishiga diqqatingizni qaratasiz.

Qadrli o'quvchilar!

Ona tilining sir-asrорlari haqidagi bilimingizni yanada oshirishga intiling!

Shartli belgilar:



– bilib oling;



– o'qing;



– yozing;



– gapiring;



– tinglang, fikrlang, o'ylang, mulohaza yuriting;



– uyga vazifa.

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan
ijara uchun chop etildi.**

UO'K 811.512.133(075.3)

KBK 81.2 O'zb – 922

ISBN 978-9943-6449-0-8

© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020

1-dars. TILNING IJTIMOIY AHAMIYATI



Topshiriq. Shoir To'ra Sulaymonning fikrlarini tinglang.


“Til – millatning ko‘zgusi”, deydilar. Bu ko‘zguni gard-g‘uborlardan, chang-to‘zonlardan soniya sayin tozalay borish har birimizning farzandlik, fuqarolik burchimizdir. Til o‘zagimizning, o‘zligimizning, o‘ziga bekligimizning bosh belgisidir. “Til – millatning ruhi, deyiladi. Til yo‘qolsa, millat ham tamom bo‘ladi. Til yashasa, millat ham yashaydi”.

Munosabat bildiring.

1. Shoir “Til o‘zagimizning, o‘zligimizning, bekligimizning bosh belgisi” deganda nimalarni nazarda tutganligini tushuntirishga harakat qiling. 2. Tilni yo‘qotmaslik uchun nima qilish kerak deb o‘ylaysiz?



1-mashq. Alisher Navoiy aytgan hikmatli so‘zni sharhlang.



Tilga e’tibor – elga e’tibor.

Munosabat bildiring.

Nima sababdan o‘zbek tili yoki o‘zbek adabiy tili deganda dastlab Alisher Navoiy nomini yodga olamiz?



2-mashq. Quyidagi fikrlarga qo‘shilasizmi va nima uchun?

1. Til bilmasdan chet ellarga borgan odam qiyin vaziyatga tushib qoladi.
2. Til yo‘qolsa, millat ham yo‘qolib ketadi.
3. Inson o‘z hayoti davomida ko‘plab tillarni o‘rgana olishi mumkin.



Til kishilar o‘rtasidagi aloqa-aratashuv quolidir. Shunga ko‘ra u ijtimoiy hodisa sanaladi. Til vositasida fikrlaymiz va boshqalarga fikrimizni uzatamiz. Tilni xalq yaratadi va unga sayqal beradi.

Lug'at: ijtimoiy – məsələ va jamiyat hayotiga oid



3-mashq. Rasmdagi turli millat vakillarining ona tili qaysi til?



4-mashq. Til haqidagi maqollarni davom ettiring.

Taom lazzatil
tuzida,...

Tilingda bo'l-
sa boling,...

Til bor, bol
keltirar,...

Tig' jarohati
bitar,...



5-mashq. Uyga vazifa. Til haqida maqol, she'r, rivoyatlar topib, yozib keling.

2-dars. O'ZBEK TILI – DAVLAT TILI

Assalomu alaykum, bolalar, mening ismim – *Komiljon*, yonimdagi sinfdoshimning ismi – *Donoxon*.



Salom, biz 5-sinfda o'qiyimiz. Yil davomida sizlar bilan
birga bo'lamiz.



Topshiriq. Muhammad Yusufning “Ona tilim” she'ridan olingan parchani tinglang.

Sen bo'lmasang, nima bizga silliq she'rlar,
“Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q”, – derlar.
Bahoying-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to'ridagi so'nmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.



Munosabat bildiring.

"Tili yo'qda dil yo'q", deganda nimani tushunasiz?



6-mashq. Matnni diqqat bilan o'qing.

Ko'pchilik o'zbek tilini nega o'rganganimga qiziqadi. Bundan bir necha yil avval tasodifan juda ajoyib qo'shiq eshitib qoldim. Aniqlashtirib, uning o'zbek tilida kuylanganini bildim. Shu tariqa dunyoda o'zbek tili borligini bilib oldim va O'zbekistonga qiziqib qoldim. Yaponiyada o'zbek tilini o'rgatadigan maxsus institutni topib, unda ta'lim oldim. 2016–2017-o'quv yilida Toshkent davlat Sharqshunoslik institutida o'qidim. O'zbekistonda o'tgan bir yilim menda juda katta taassurot qoldirdi. Bugunga qadar ushbu go'zal va boy tilni o'rganishda davom etmoqdamman. Eng katta orzum – o'zbek tilidagi go'zal qo'shiqlarni yapon tiliga tarjima qilib, Yaponiya va O'zbekistonning madaniy hamda turizm aloqalarini yanada kuchaytirish.



(Naita Rio, Yaponiya)



Munosabat bildiring.

1. Yapon sharqshunosining o'zbek tilini o'rganishiga nima sabab bo'lган?
2. Siz, yurt farzandi sifatida, o'zbek tilini rivojlantirish uchun nimalar qilishni xohlaysiz?

Komiljon: – Nima uchun har bir millat o'z ona tilining taqdiri uchun kurashadi?

Donoxon: – Davlat tilida ish yuritish deganda nimani tushunasiz?



1989-yilning 21-oktabr kuni o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Shu kundan boshlab jamiyatimizda ona tilimizning obro'yি oshdi. Majlislar, ish yuritish hujjatlari, asosan, o'zbek tilida olib boriladigan bo'ldi.

Mustaqillik tufayli bu ish yanada jadallahshdi. Milliy qadriyatlаримизни, тарихимизни о'рганиш үчун кенг ўйлар очиди. О'zbek tilining xalqaro nufuzini ko'tarish bo'yicha amaliy ishlар boshlandi.



Lug'at: nufuz – սուր – սովոր, տաշիր



7-mashq. Qoida (nazariy matn)ga asoslanib savollarga javob qaytaring.

1. Davlat tilining mavqeyi deganda nimani tushunasiz?
2. Qachondan boshlab majlislar, ish yuritish (hujjatlar) o'zbek tilida olib borilmoqda?

 **8-mashq.** O'zbek tilining nufuzini ko'tarish uchun yurtimizda olib borila-yotgan ishlar haqida 3 ta ma'lumot yozing.

 **9-mashq.** O'z ism-familiyangizni to'liq yozing. Ular O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili haqida"gi Qonunining quyidagi bandiga to'g'ri keladimi?

15-modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.



10-mashq. Uyga vazifa.


1. O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili haqida"gi Qonunining quyidagi moddasiga diqqat qiling:



6-modda. Televide niye va radioeshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

Shu moddaga tayanib, "Bolajon" kanalidagi o'zingizga yoqqan o'nta ko'rsatuvning nomini yozing.

2. Muhammad Yusufning "Ona tilim" she'rini to'liq yodlang.



3-dars. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI TAKRORLASH. OT SO'Z TURKUMI



Topshiriq. Matnni o'qing. Shahobiddin Nasaviyning Jaloliddin Manguberdi to'g'risida yozgan fikrlariga diqqat qiling.

Jaloliddin qorachadan kelgan, o'rta bo'yli, nutqi turkiy bo'lsada, forsiy tilda ham so'zlar edi. Shijoatli, sherlar ichra sher edi. U adolatni sevardi. Jaloliddin o'ta qat'iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o'zini yo'qotib qo'ymaydigan, favqulodda mard va botir sarkarda edi.



Topshiriqni bajaring.

1. "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni" mavzusida og'zaki matn tuzing.
2. Manguberdiga xos xususiyatlarni sanang.
3. Ajratilgan so'zlarning qaysi so'z turkumiga oid ekanligini aniqlang.



11-mashq. Rasmda tasvirlangan joyga diqqat qiling.

Rasmdagi tasvirga tayanib matn yarating. Yaratgan matningizdagi so'zlarni so'rog'iga qarab quyidagi jadvalga joylashtiring.



| Kim?, Nima?, Qayer? | Qanday?, Qaysi? | Nima qilmoq? | Qancha? | Qachon? |
|------------------------|--------------------|--------------|---------|---------|
| | | | | |



12-mashq. Quyidagi savollarga javob yozing.

1. O'zbekiston Respublikasining maydoni necha kv. km?
2. O'zbekiston qaysi davlatlar bilan chegaradosh?



3. O'zbekistona qachon a'zo bo'lib kirgan?
4. Mustaqil so'zlar deb qanday so'zlarga aytildi?
5. Ot so'z turkumining belgilarini aytib bering.
6. *Istiqlol, ozodlik, erkinlik* degan so'zlarning sharhini yozing.



13-mashq. Bayroqlarning qaysi davlatlarga tegishli ekanligini topishga harakat qiling. 5 daqiqa ichida “*Kim ko'p davlat nomini yozadi?*” o'yinini o'tkazing.



14-mashq. Uyga vazifa.

Yer sharning qayerlariga borishni orzu qilasiz va nima uchun? Shu haqda hikoya tuzib keling.



4-dars. SIFAT SO'Z TURKUMINI TAKRORLASH

– Komil inson deganda kimlarni tushunasiz? Unga xos sifatlarni sanab bering.



15-mashq. Quyidagi savollarga javob qaytaring.

Oqillar suhbatidan xulosa chiqarish komillik sari yetaklaydi. Siz nima deysiz?

Alisher Navoiy kabi allomalarimizni nima uchun komil inson deb hisoblaymiz?

Komil inson yaxshi oilada tarbiya topadi. Shu fikrga qo'shilasizmi?

Inson kamolotida badiiy asarlarni o'qish qanday o'rincutadi?



Topshiriq. Hikmatli so'zlarni o'qing. Ularda ilgari surilgan fikrlarga diqqat qiling.

1. Aql yomonlikka qaratilsa, inson razil, makkor, aldamchi bo'lib qoladi. (*Abu Nasr Forobiy*)

2. Aql tarozisida tort tagan har qanday bilim asos-sizdir. (*Abu Ali ibn Sino*)
3. Tabiat kimga aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo'l uradi. (*Yusuf Xos Hojib*)
4. Insonning eng sharaflı va buyuk darajasi uning aqlidir. (*Abdurauf Fitrat*)



 **16-mashq.** Sifatlarni ma'nosiga qarab jadvalga joylang va ularga izoh bering.

Rostgo'y, yolg'onchi, halol, or-nomusli, ayyor, ishbilarmon, o'jar, nodon, o'qimishli, dangasa, hayoli, odobli, g'ururli, xalqparvar, kamtar, janjalkash, kitobsevar, kaltafahm, adolatli, cho'rtkesar, betgachopar, uyquchi, besabr, andishasiz...

| Ijobiy sifatlar | Salbiy sifatlar |
|-----------------|-----------------|
| | |

 **17-mashq.** Alisher Navoiyning o'gitlariga quioq tuting. Ullardagi ot va sifat turkumiga oid so'zlarni ajratib yozing.

Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir, barcha xalqlar uchun yoqimlidir. Odob kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor qiladi. Yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo'ladilar. ("Ibratli hikoyatlar"dan)



 **18-mashq.** Uyga vazifa. "Navoiy o'gitlariga amal qilaman" mavzusida matn tuzing va unda sifatlardan foydalaning.



– Onangiz non olib kelishga yuborganda hisob-kitob uchun qanday so'zlardan foydalanasiz? Bu so'zlarning hayotdagi o'rni haqida fikringizni ayting.



Topshiriq. Said Ahmadning “*Haykal*” hikoyasidan olingen parchani o'qing. Ajratilgan so'zlarga diqqat qiling.

Buxoro ko'chalarida xayolchan kezarkanman, **bir to'da** sayyoohlар boshi bulutga chulg'angan minoraga qarab turishganini ko'rdim. **Ulariga** bir kishi minora tarixini tushuntiryapti. Quloq soldim.

– **Yetti yuz yil** bo'lgan bu minoraning qurilganiga.

Sayyoohlар hayrat bilan yoqalarini ushslashdi. Buxoro ko'chalarida kezarkanman, juda ko'p xotiralar xayolimdan o'tadi. Asrlar qa'rida qolib ketgan jang-u jadallarni ko'rgandek, qilich-qalqonlarning jarangini eshitgandek bo'laman. **Bularning** barini tarix shamollari uchirib ketdi. Ammo ko'hna devorda qolgan **besh barmoq** izi hali ham ko'rinib turibdi. Bu – **ming yillar** qa'rida yo'q bo'lib ketgan odam qo'lining izi. **Shu** azamat binoga g'isht tergan me'mor qo'lining izi. Odam qo'ligina odamga abadiy haykal qo'yishiga **ana o'shanda** ishonganman.

(Said Ahmad)



Topshiriqni bajaring.

1. Siz yashayotgan joyda qanday tarixiy obidalar bor? Ularning barpo bo'lganiga qancha vaqt bo'lgan?
2. O'zbekistonidagi tarixiy obidalarni sanang. Ularni ifodalashda qaysi so'z turkumidan foydalanyapsiz?



19-mashq. Matematikaga qiziqsizmi? Raqamlar jozibasiga e'tibor bering-a! Hisob-kitobning ona tiliga qanday aloqador tomonlari bor?

$$123 \times 9 + 4 = 1111$$

$$1234 \times 9 + 5 = 11111$$

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o‘zingiz uchun kerakli ma’lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomeriga telegram orqali bog‘lanishingiz yoki nza456, nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi.

5-sinf ona tili darsligini to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiiev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo‘ling!

Bizda maktablar uchun quydagи hujjatlар mavjud

- 1. 1-11-Sinflar uchun sinf soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to‘garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Darsliklarning elektron varianti**
- 9. Maktab ish hujjatlari**
- 10. Direktor ish hujjatlari**
- 11. MMIBDO‘ ish hujjatlari**
- 12. O‘IBDO‘ ish hujjatlari**
- 13. Psixolog hujjatlari**
- 14. Xotin-qizlar qo‘mitasi ish hujjatlari**
- 15. Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 16. Besh tashabbus hujjatlari**
- 17. Ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**